Xorazm viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-sentabr oylari uchun dastlabki ma‘lumot

I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
IV. METAMA‘LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6 017 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 77 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 940 tani tashkil qildi.


2026-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 16 856,5 mlrd so‘mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 22,0 % ga oshdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 697,8 mlrd so‘mni (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 132,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 16 158,8 mlrd so‘mni (o‘sish sur‘ati 121,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 686,6 mlrd so‘mni (o‘sish sur‘ati 137,0 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o‘sish sur‘ati *(% da)*



Chakana savdo aylanmasining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi
(ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 747 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 716 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning ulgurji savdo tovar aylanmasi 9 651,3 mlrd so‘mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 16,2 % ga o‘sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 9 012,0 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 109,7 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi esa 93,4 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi *(mlrd so‘m)*



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o‘sish sur‘ati Shovot (9,3 m.), Urganch tumanlari (3,1 m.) hamda Urganch shahrida (2,1 m.) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o‘sish sur‘atlari *(foizda)*




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 770 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 764 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 13 501,9 mlrd so‘mga yetdi. Bu ko‘rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 25,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 83,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmining o‘sish sur‘atlari *(foizda)*



IV. METAMA‘LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, O‘zbekiston Respublikasining me‘yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko‘rsatmalar va tavsiyalar “Milliy hisoblar tizimi –2008”, “Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo‘yicha xalqaro tavsiyalar” (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko‘rsatkichini hisoblash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo‘mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo‘limi	**Bo‘lim boshlig‘i:** M.Egamov Tel: (9090)	**Ijrochi:** R.Buxarbayev Tel: (9040) e-pochta: savdo@xorazmstat.uz	**Manzil:** 220100, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko‘chasi,93